KIRISH		
1	“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi”. Ushbu jumlalar muallifi kim? ★	Shavkat Mirziyoyev
2	Tarixchi olimlar O‘zbekistonning XVI asrdan XIX asr o‘rtalariga bo‘lgan davriga qanday nom berishgan?	“So‘nggi o‘rta asrlar” yoki “Uch xonliklar davri”
3	Temuriylar davlati qachon to‘la barham topgan? ★	XVI asr boshlari
4	Temuriylar sulolasi hukmronligi barham topgach, yurtimizda qaysi sulola hukmronligi o‘rnatildi? ★	Shayboniylar sulolasi
5	Buxoroda shayboniylardan so‘ng qaysi sulola hokimiyat tepasiga keldi? ★	ashtarxoniylar
6	Shayboniylar davlatida markaziy hokimiyatning zaiflashuviga, yurt hokimlari hokimiyatining kuchayishiga, siyosiy tarqoqlikning hukm surishiga olib kelgan omilni aniqlang.	xon davlat hududlarini sulola a’zolariga yurt (udel) qilib bo‘lib berishi
7	Buxoro xonligi qachon ikkiga bo‘linib ketdi? ★	XVIII asr boshlarida
8	So‘nggi o‘rta asrlarda arabshohiylar sulolasi qaysi davlatda hukmronlik qilgan? ★	Xiva xonligi
9	Xiva xonligida arabshohiylardan so‘ng qaysi sulola hokimiyat tepasiga keldi?	qo‘ng‘irotlar
10	Buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarni ketma-ketlikda ayting.	shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar
11	Diyorimizda mustaqil uch davlatning (Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligi) ning tashkil topishi qanday oqibatlarga olib keldi?*	– urug‘-qabila sulolalari markazdan qochuvchi mahalliy hukmdorlarning qarshiligini sindirib markaziy hokimiyatni kuchaytirib oldi – yagona o‘zbek xalqi uch davlatga bo‘linib yashadi
12	Vatanimiz tarixining “So‘nggi o‘rta asrlar” davri necha yillik tarixni o‘z ichiga oladi?	350 yillik
1-§. DASHTI QIPCHOQDAGI SIYOSIY VAZIYAT		
13	Qachondan boshlab arab va fors manbalarida “Dashti Qipchoq” deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi?	XI asr
14	XI asrdan boshlab qaysi manbalarda “Dashti Qipchoq” deb ataluvchi geografik hudud tilga olingan?	arab va fors manbalarida
15	“Dashti Qipchoq” tarixiy-geografik atamasi qaysi hududlarga nisbatan ishlatilgan?	Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyan-shanning g‘arbiy yonbag‘ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar qadar cho‘zilgan dashtlarga
16	Qaysi daryo Dashti Qipchoqni sharqiy va g‘arbiy qismlarga ajratib turgan?	Ural
17	Ural daryosi qadimda qanday nomlangan?	Yoyiq
18	Ruslar Dashti Qipchoq aholisini qanday ataganlar?	poloveslar
19	Qipchoqlar Vizantiya manbalarida qanday atalgan?	Kumanlar

20	Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyan-shanning g‘arbiy yonbag‘ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar qadar cho‘zilgan dashtlarda yashovchi aholi sharq manbalarida qanday nom bilan atalagan?	qipchoqlar
21	Dashti Qipchoqning qaysi qismida yashovchi aholi “o‘zbeklar” deb atalgan?	Sharqiy qimida
22	Oltin O‘rda xonligiga qachon asos solingan?	1240-yil
23	Oltin O‘rda xonligiga kim asos solgan?	Botuxon
24	Oltin O‘rda xonligiga asos solgan Botuxon kimning o‘g‘li edi?	Jo‘jixonning
25	Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li kim?	
26	Botuxon asos solgan Oltin O‘rda yana qanday nom bilan atalgan?	Jo‘ji ulusi
27	Oltin O‘rda qaysi hududlarni o‘z ichiga olgan?	
28	Oltin O‘rdaga XV asr oxirlarigacha o‘lpon to‘lashga majbur bo‘lgan qaram o‘lkani ayting.	Rus knyazliklari
29	Oltin O‘rda Jo‘jixonning o‘g‘illari o‘rtasida taqsimlanishi natijasida, Dashti qipchoqning sharqiy qismi kimga tegdi?	Shaybon
30	Shaybon Jo‘jixonning nechanchi o‘g‘li bo‘lgan?	beshinchi
31	Shaybon naslidan bo‘lgan Davlatshayx qachon vafot etgan?	1425-yil
32	Abulxayrxon kimning o‘g‘li edi?	Davlatshayx
33	Shaybon ulusida, ayniqsa, kimning vafotidan so‘ng toj-u taxt uchun kurash kuchayib ketdi?	Davlatshayx
34	“O‘zbek ulusi”ga kim asos solgan? ★	Abulxayrxon
35	“O‘zbek ulusi”ga asos solgan Abulxayrxon kimning o‘g‘li edi?	Davlatshayx
36	Abulxayrxonga taxt uchun kurashda kimlar yordam berdilar?*	Dashti Qipchoqdagi o‘zbek qabilalari va ruhoniylar
37	Abulxayrxon qachon “O‘zbek ulusi” deb atalgan davlatga asos soldi? ★	1428-yil
38	Abulxayrxon asos solgan “O‘zbek ulusi”ning poytaxti etib dastlab qaysi shahar belgilandi?	Tura
39	O‘zbek ulusining dastlabki poytaxti Tura shahri qayerda joylashgan edi?	janubi-g‘arbiy Sibirda
40	Abulxayrxon qachon o‘z davlati – O‘zbek ulusini Oltin O‘rdadan mustaqil deb e’lon qildi?	1431-yil
41	Abulxayrxon qachon Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan Sig‘noq, Oqqo‘rg‘on, Arquq, O‘zgan va Suzoq shaharlarini bosib oldi?	1446-yil
42	Quyidagi qaysi voqea Abalxayrxonnig temuriylarga qarshi kurashga kirganligining dastlabki belgisi edi?	Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan hududlarni bosib olib, o‘z poytaxtini Turadan Sig‘noqqa ko‘chirishi
43	O‘zbek ulusi davlatida poytaxt vazifasini o‘tagan shaharlarni ayting.	Tura, Sig‘noq
44	1446-yilda Abulxayrxon Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan qaysi shaharlarni bosib oldi?	1) Sig‘noq; 2) Suzoq; 3) Oqqo‘rg‘on; 4) O‘zgan; 5) Arquq.
45	Abulxayrxon qaysi temuriyzodaga Samarqand taxtini egallashda yordam berish bahonasida yurish boshladi?	Abu Said

46	Abulxayrxon qachon Abu Said Mirzoga Samarqand taxtini egallashda yordam berish bahonasida yurish boshladi?	1451-yil
47	Abu Said Mirzo Abulxayrxonga minnatdorchilik tariqasida nikohlab bergan Robiya Sultonbegim kimning qizi edi? ★	Mirzo Ulug‘bekning
48	Abulxayrxon qachon vafot etdi?	1468-yil
49	Ma’lumki, Abulxayrxon vafotidan so‘ng dushmanlari tomonidan uning qarindoshlari va tarafdorlari qirg‘in qilindi. Abulxayrxonning shu qirg‘indan omon qolgan nabiralari kimlar edi?	Muhammad Shayboniy va Mahmud Sulton
50	Ma’lumki, Abulxayrxon vafotidan so‘ng dushmanlari tomonidan uning qarindoshlari va tarafdorlari qirg‘in qilindi. Abulxayrxonning shu qirg‘indan omon qolgan o‘g‘illari kimlar edi?	Ko‘chkunchixon va Suyunchxo‘jaxon
51	Muhammad Shayboniy kimning o‘g‘li edi?	Shohbudog‘ Sultoning
52	Muhammad Shayboniy qachon tug‘ilgan?	1451-yil
53	Abulxayrxon nabiralari – Muhammad Shayboniy va Mahmud Sultonga kimni otaliq etib tayinlaydi?	Amir Boyshayx
54	Shohbudog‘ Sulton va o‘g‘illariga otaliq qilgan amir Boyshayx qaysi qavmdan edi?	uyg‘ur
55	Shayboniy va Mahmud Sultonlar qochqinlik davrida qayerdan boshpana topdilar?	Turkiston
56	Muhammad Shayboniy ukasi bilan birga Turkistondan so‘ng qayerga borib, ilm o‘rganadi, iste’dodli shoir sifatida taniladi va nufuzli davlat va din arboblari bilan yaqinlashib oladi? ★	Buxoro
57	Bobosi Abulxayrxon davlatini tiklash uchun Buxorodan Dashti Qipchoqqa kuchli yollanma qo‘shin bilan qaytgan Muhammad Shayboniyga u yerda qaysi omil qo‘l keladi?	aholining turli tabaqalari ulusda tinchlik o‘rnatilishini xohlayotganligi
58	Muhammad Shayboniy nima uchun Movarounnahr, Xuroson temuriyzodalari hamda Mo‘g‘uliston hukmdorlariga ichki raqiblariga qarshi kurashda yordam ko‘rsata boshlaydi?	o‘z yollanma qo‘shinini saqlab turish uchun sarflanayotgan katta mablag‘ ulardan kelayotganligi sababli
59	O‘zbek ulusi qayerda tashkil topdi? ★	sharqiy Dashti Qipchoqda
60	O‘zbek ulusi davlati qachon parchalanib ketgan? ★	1468-yil
61	Abulxayrxon asos solgan O‘zbek ulusi davlati qaysi yillarda faoliyat yuritgan?	1428-1468-yillarda
62	Muhammad Shayboniyxon qachon bobosi bunyod etgan O‘zbek ulusi davlatini tikladi? ★	1480-yil (XV asr 80-yillari)
63	Qaysi omil Muhammad Shayboniyga Temuriylar davlatidagi ichki vaziyatni yaxshi bilib olishga imkon bergan?	Muhammad Shayboniyning turli temuriy hukmdorlarga xizmat qilishi
64	Amir Temur vafotidan so‘ng toj-u taxt uchun olib borilgan kurashlarda oxir-oqibat kim g‘olib chiqadi?	Shohrux Mirzo
2-§. MOVAROUNNAHR VA XUROSONDAGI SIYOSIY VAZIYAT		
65	Amir Temurning to‘ngich o‘g‘li kim? ★	Jahongir Mirzo
66	Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li kim? ★	Umarshayx Mirzo *(ba’zi adabiyotlarda ikkinchi o‘g‘il Jahongir Mirzo sifatida e’tirof etiladi)*
67	Amir Temurning uchinchi o‘g‘li kim? ★	Mironshoh Mirzo

68	Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li kim? ★	Shohrux Mirzo
69	XV asr boshlaridan Temuriylar davlati ikki mustaqil davlatga bo‘lib boshqarildi. Ulardan biri – Xurosonda kim hukmronlik qilgan? ★	Shohrux Mirzo
70	XV asr boshlaridan Temuriylar davlati ikki mustaqil davlatga bo‘lib boshqarildi. Ulardan biri – Movarounnahrda kim hukmronlik qilgan? ★	Mirzo Ulug‘bek
71	Kimning vafotidan so‘ng Movarounnahrda toj-u taxt uchun kurash kuchaydi?*	Mirzo Ulug‘bek
72	Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng Movarounnahrda boshlangan o‘zaro toj-u taxt uchun kurashda kim g‘olib chiqdi? ★	Abu Said Mirzo
73	Mirzo Ulug‘bek kimning o‘g‘li edi?	Shohrux Mirzo
74	Abu Said Mirzo kimning nabirasi edi?	Mironshoh
75	Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng Movarounnahrda boshlangan o‘zaro toj-u taxt uchun kurashda Abu Said Mirzo kimning yordamida g‘alaba qozonadi?	Abulxayrxon
76	Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur qachon vafot etgan?*	1457-yil
77	Abu Said Mirzo qachon qachon Xuroson taxtini egalladi?*	1457-yil
78	Abu Said Mirzo Xuroson (a) va Movarounnahr (b) ni egallagan yillarni ayting.*	Xuroson (a) – 1457-yilda Movarounnahr (b) – 1451-yilda
79	Abu Said Mirzo qachon vafot etdi?	1469-yil
80	Abu Said Mirzo kimlarga qarshi kurashda halok bo‘lgan?	oqqo‘yunlilar
81	Qaysi temuriy hukmdor oqqo‘yunlilarga qarshi kurashda halok bo‘lgan?	Abu Said Mirzo
82	Qaysi temuriylar turkmanlar bilan jangda halok bo‘lgan?	Mironshoh va Abu Said Mirzo
83	Ma’lumki, Abu Said turkmanlar bilan jangda halok bo‘ladi. Turkmanlar o‘sha vaqtda qaysi hududlarni egallab turgan edi? (7-sinf “O‘zbeksiton tarixi”dan)	Ozarbayjon, G‘arbiy Eron, Iroq
84	Qaysi voqeadan keyin Movarounnahr amalda uch mustaqil davlatga bo‘linib ketadi? ★	Abu Said Mirzoning vafotidan so‘ng
85	Abu Said Mirzo vafotidan so‘ng Movarounnahr necha qismga bo‘linib ketdi?	uch
86	Ma’lumki, Abu Said Mirzo vafotidan so‘ng Movarounnahr uning o‘g‘illari hukmdor bo‘lgan amalda uch mustaqil davlatga bo‘linib ketdi. Shulardan biri bo‘lgan Samarqandda kim hukmronlik qiladi?	Abu Said Mirzo
87	Ma’lumki, Abu Said Mirzo vafotidan so‘ng Movarounnahr uning o‘g‘illari hukmdor bo‘lgan amalda uch mustaqil davlatga bo‘linib ketdi. Shulardan biri bo‘lgan Farg‘onada kim hukmronlik qiladi?	Umarshayx Mirzo
88	Ma’lumki, Abu Said Mirzo vafotidan so‘ng Movarounnahr uning o‘g‘illari hukmdor bo‘lgan amalda uch mustaqil davlatga bo‘linib ketdi. Shulardan biri bo‘lgan Hisor, Xuttalon va Badaxshonda kim hukmronlik qiladi?	Sulton Mahmud Mirzo

89	Abu Said Mirzo vafotidan so‘ng Movarounnahrning rasman hukmdori sifatida kim e’lon qilinadi	Sulton Ahmad
90	Movarounnahrning quyidagi qaysi hukmdori davrida aholi tinchlik va osoyishtalikda yashagan?	Sulton Ahmad
91	Sulton Ahmad Mirzo vafotidan so‘ng Movarounnahr taxtini kim egalladi?	Sulton Mahmud Mirzo
92	Boysung‘ur Mirzo kimning o‘g‘li edi?	Sulton Mahmud Mirzo
93	Temuriy Sulton Mahmud vafotidan so‘ng Movarounnahr taxtini kim egalladi?	Boysung‘ur Mirzo
94	Boysung‘ur Mirzo Movarounnahr taxtini qachon egallagan?	1495-yil
95	Bobur Mirzo qachon Samarqand ustiga yurish boshlab, 7 oy davomida qamalda tutadi?	1497-yil
96	Bobur Mirzo 1497-yili Samarqand ustiga yurish qilganda nima tufayli Boysung‘ur askarlari orasida parokandalik ro‘y beradi?	shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelganligi tufayli
97	Bobur Mirzoning 1497-yilgi Samarqand qamaliga bardosh berishga ko‘zi yetmagan Boysung‘ur kimdan yordam so‘raydi?	Muhammad Shayboniyxondan
98	Ma’lumki, Bobur Mirzo 1497-yili Samarqand qamalini boshlanida qamalga bardosh berishga ko‘zi yetmagan Boysung‘ur Shayboniyxondan yordam so‘raydi. Shayboniyxon bu paytda qayerda edi?	Turkiston
99	“Yassi” hozirgi qaysi shaharning qadimiy nomi hisoblanadi?	Turkiston
100	1497-yili Bobur Mirzo Samarqandni qamal qilayotgan pallada Shayboniyxonning kelishi Boburni sarosimaga solib qo‘yadi. Bu paytda Boburning askarlari nima sababdan ozchilikni tashkil qilayotgan edi?	askarlar sovuq tufayli tevarak atrofdagi qishloqlarga tarqab ketganligi sababli
101	1497-yilgi Bobur va Boysung‘ur o‘rtasidagi kurash davrida Boysung‘urning chaqirig‘i bilan kelgan Shayboniyxon nima uchun keyinchalik Turkistonga qaytib ketadi?	Boysung‘ur uni Samarqand ichkarisiga kiritmaganligi sababli
102	Bobur Mirzo 1497-yilda Boysung‘ur Mirzoga qarshi yurish boshlab, Samarqandni qancha vaqt mobaynida qamal qiladi?	7 oy
103	Bobur Mirzo birinchi marta qachon Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo‘ldi? ★	1497-yil
104	Bobur Mirzo 1497-yilda bobosi Amir Temur taxtining sohibi deb e’lon qilinadi. Biroq, nima sababdan sohiblik uzoqqa cho‘zilmaydi?	Boburning dushmanlari Farg‘ona taxtiga ukasi Jahongirni o‘tqazish uchun ko‘targan isyoni sababli
105	Sulton Ali Mirzo qachon Movarounnahr taxtini egallagan?	1498-yil
106	Qachon aka-uka Bobur va Jahongir Mirzolar o‘rtasida sulh tuzildi?	1500-yil
107	1500-yilda Bobur va Jahongir Mirzolar o‘rtasida tuzilgan sulhga ko‘ra, Jahongir Mirzo … .	Sirdaryoning shimoliy tarafini, Axsi shahri bilan birga qo‘shib oladi
108	1500-yilda Bobur va Jahongir Mirzolar o‘rtasida tuzilgan sulhga ko‘ra, Bobur Mirzo … .	Sirdaryoning janubiy tarafiga, Andijon shahri bilan birga ega bo‘ladi
109	Kim vafot etgach, Xurosonda toj-u taxt uchun kurash avjiga chiqadi?	Shohrux Mirzo

110	Xuroson hukmdori Shohrux Mirzo qachon vafot etgan?	1447-yil
111	Shohrux Mirzo vafotidan so‘ng Xuroson davlati necha qismga bo‘linib ketadi? ★	11 qismga
112	Abu Said Mirzo qachon Temuriylar saltanatini bir qadar birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi?	1457-yil
113	Abu Said Mirzo halok bo‘lgach, Xuroson taxtini kim egalladi? ★	Husayn Boyqaro
114	Sulton Husayn Boyqaro qachon Xuroson taxtini egalladi? ★	1469-yil
115	Sulton Husayn Boyqaro kimning nabirasi edi?	
116	Sulton Husayn Boyqaro necha yil hukmronlik qilgan? ★	40 yil
117	Badiuzzamonning ayyorlik yo‘li bilan qatl ettirilgan o‘g‘li kim edi? ★	Mo‘min Mirzo
118	Badiuzzamonning qora kuchlar fitnasi bilan qatl ettirilgan o‘g‘li Mo‘min Mirzo necha yoshda edi?	11 yoshda
119	Badiuzzamonning o‘g‘li Mo‘min Mirzoning qatl ettirilishini uyushtirgan qora kuchlarning maqsadi nima edi?	taxtga Badiuzzamonni emas, uning o‘gay ukasi Muzaffar Husaynni o‘tqazish
120	“U o‘z saroyida olimlar, shoirlar, ulamolar, san’atkorlarni yig‘ib anjumanlar o‘tkazardi. O‘zi ham go‘zal g‘azallar bitardi. Ulug‘ Alisher Navoiy uning bu fazilatlariga juda yuqori baho bergan”. Ushbu ta’rif kim haqida?	Badiuzzamon Mirzo
121	Sulton Husayn Boyqaro qachon vafot etdi? ★	1506-yil
122	Kimning vafotidan so‘ng Xurosonda qo‘shhokimiyatchilik vujudga kelgan? ★	Sulton Husayn Boyqaro
123	Sulton Husayn Boyqaro davrida Xuroson davlatida qanday ishlar amalga oshirildi?	– xo‘jalik va madaniy hayoti ancha yuksak darajada rivojlandi; – mamlakat obodonchiligi yo‘lida katta ishlar amalga oshirildi – Movarounnahrga nisbatan siyosiy barqarorlik ta’minlandi
124	Abu Said 1469-yilda urushda halok bo‘lgach, Movarounnahr hokimiyatini boshqargan hukmdorlarni ketma-ketlikda ayting.	Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung‘ur Mirzo, [Bobur,] Sulton Ali
125	Qaysi temuriylar Movarounnahrda hukmronlik qilgan? (8-sinf “O‘zbekiston tarixi” asosida)	Mirzo Ulug‘bek, Abu Said, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung‘ur, Sulton Ali, Bobur
126	Qaysi temuriylar Xurosonda hukmronlik qilgan? (8-sinf “O‘zbekiston tarixi” asosida)	Shohrux Mirzo, Abu Said, Abulqosim Bobur, Husayn Boyqaro
3-§. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON MUNOSABATLARI		
127	Bobur Mirzo kimning nabirasi edi?	Abu Said (1451-1469 / Mironshohning nabirasi)
128	Bobur Mirzo kimning o‘g‘li edi?	Umarshayx ibn Abu Said
129	Bobur Mirzo qachon tug‘ilgan?	1483-yil 14-fevral
130	Bobur Mirzo qaysi shaharda tug‘ilgan? ★	Andijon
131	Bobur Mirzoning bolalik va yoshlik yillari qaysi shaharlarda o‘tgan?	Andijon va Axsi

132	Boburning otasi Umarshayx Mirzo nechanchi yillarda yashab o‘tgan?	1455-1494-yillar
133	Abu Said Mirzo o‘g‘li Umarshayx Mirzoni o‘z hukmronligi davrida qayerlarga hokim etib tayinlagan?	Dastlab Kobul, so‘ngra Farg‘ona viloyatiga
134	Sulton Ahmad hukmronligi davrida qaysi hududlar ukasi Umarshayx Mirzoga beriladi?	Toshkent va Sayram
135	Umarshayx Mirzo qo‘l ostida oxir-obiqat o‘zaro ichki kurashlar natijasida faqatgina qaysi hududlar qoladi?	Farg‘ona, Xo‘jand va O‘ratepa
136	Umarshayx Mirzo 1494-yilda vafot etgach, hokimiyat kimning qo‘liga o‘tadi?	Bobur Mirzo
137	Bobur Mirzoning onasi kim edi? ★	Qutlug‘nigorxonim
138	Bobur Mirzo o‘n ikki yoshida taxtga chiqqanda yosh bo‘lganligi bois kimlarning yordamida davlat ishlarini boshqardi?	ishonchli beklardan Hojiqozi onasi Qutlug‘nigorxonim
139	Onasining gapiga kirib Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshirgan temuriy hukmdorni toping.	Sulton Ali Mirzo
140	Shayboniyxon qachon Samarqandni jangsiz egallaydi?	1500-yil
141	Shayboniyxon 1500-yili Samarqandni egallagandan so‘ng Movarounnahrning nufuzli arboblari … Abdulmakorim Bobur Mirzoni Samarqand taxtini egallashga da’vat etadilar.	shayxulisom Abdulmakorim
142	Ma’lumki, Bobur Mirzo 1500-yilning kuzida Samarqandga yurish boshladi va taxtni ikkinchi marta egalladi. Bu paytda Shayboniyxon qayerda edi?	Konigilda
143	Samarqand tashqarisidagi hukmdorlar hordiq chiqaradigan joyning nomini toping.	Konigil
144	1500-yilda Bobur Samarqand taxtini ikkinchi marta egallaydi. U Shayboniyxon bilan urush muqarrar ekanligini, bu jang hal qiluvchi urushligini anglab, qaysi hokimliklardan yordam so‘rab, elchilar jo‘natadi?	Andijon, Hisor, Hirot, Toshkent
145	Bobur Mirzo Shayboniyxonga qarshi kurashda yordam so‘ragan paytda Sulton Mahmudxon qayerda edi?	Qashqarda
146	Bobur Mirzo Samarqandni ikkinchi marta egallagandan so‘ng, Shayboniyxon Samarqandga yurish qilib, necha oy davomida qamalda tutadi?	6 oy
147	Ma’lumki, Bobur Samarqandni ikkinchi marta egallashga muvaffaq bo‘ladi. Ammo, hech kimdan yordam ololmagan Bobur qachon Shayboniyxon bilan tuzilgan sulhga ko‘ra, Samarqandni tark etdi?	1501-yil
148	“Humoyunnoma” asarining muallifi kim? ★	Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim
149	Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim nechanchi yillarda yashab o‘tgan?	1523-1603-yillar
150	Gulbadanbegim o‘zining “Humoyunnoma” asarida “Xudoga tavakkal qilib Badaxshonot va Kobulga yuzlandilar” deganda kimni va nimani nazarda tutgan?	Bobur Mirzo Shayboniyxon taklif etgan haqoratli sulhga noiloj rozi bo‘lib, Samarqandni tashlab chiqishini

151	“Humoyunnoma” asarida Bobur Mirzo Shayboniyxonning haqoratli sulhiga noiloj rozi bo‘lgach, “Xudoga tavakkal qilib” qayerlarga ketganligi aytiladi?	Badaxshanot va Kobulga
152	Bobur Mirzo qachon Kobulda o‘z hokimiyatini o‘rnatgan?	1504-yil
153	Kobul hozirgi qaysi davlatning poytaxti?	Afg‘oniston
154	Bobur Mirzo Kobulda bunyod ettirgan bog‘ning nomini toping.	Bog‘i Bobur
155	Bobur Mirzo tomonidan bunyod ettirilgan “Bog‘i Bobur” qayerda joylashgan?	Kobulda
156	Bobur Kobulda qaysi qal’ani o‘z qarorgohiga aylantirdi?	Bog‘i Hisor
157	XVI asr boshlarida qaysi temuriy shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish maqsadida barcha temuriy hukmdorlari maslahat yig‘iniga taklif qiladi?	Husayn Boyqaro
158	Temuriylar saltanatining butunlay barham topishiga olib kelgan omilni aniqlang.* (bu savolga bir necha omillarni sanash mumkin, biz mazkur darslikdagida ko‘rsatilganini misol qildik)	o‘zaro ichki nizolar kuchliligi tufayli temuriyzodalar dushmanga qarshi ittifoq tuza olmagani
159	Bobur Mirzo va Shayboniyxon o‘rtasida hal qiluvchi, oxirgi jang qachon sodir bo‘lgan?	1501-yil
4-§. MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGINING O‘RNATILISHI		
160	Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishi hamda Temuriylar saltanati hududlarida o‘z hokimiyatini o‘rnatish uchun vujudga kelgan shart-sharoitlarni aniqlang.	1) Dashti Qipchoqdagi o‘zbek qabilalari rahnomalari Abulxayrxon vafotidan so‘ng boshlangan o‘zaro qirg‘inlarga Shayboniyxon chek qo‘yishiga ishonganlar; 2) Dashti Qipchoqdagi o‘zbeklar Movarounnahrda Shayboniyxon hokimiyati o‘rnatilishi o‘troq hayotga o‘tish imkoniyatini berishini yaxshi bilganlar; 3) Shayboniyxon Movarounnahrdagi ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi uning nufuzini oshirgan edi; 4) Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-u taxt uchun o‘zaro kurashlaridan charchagan edi, shuning uchun zodagonlar va hatto oddiy aholining ma’lum qismi ham Shayboniyxon timsolida bu yerda tinchlik o‘rnatishga qodir yagona shaxsni ko‘rdilar.
161	Quyidagi qaysi omil Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrga yurishini yanada tezlatib yubordi?	Rossiyaning sharqqa qarab tobora kengayib borishi
162	Shayboniyxon Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish maqsadida boshlagan harbiy yurishi paytida raqiblarini sarosimaga solib qo‘ygan jang usuli, bu – … .	tolg‘ama

163	Shayboniyxon Samarqandni birinchi marta, qisqa muddatga qachon egallagan?	1500-yil
164	Muhammad Shayboniyxon qachon yangi o‘zbek davlati – Shayboniylar davlatiga asos solgan?	1500-yil
165	Muhammad Shayboniyxon qachon Samarqandni uzil-kesil bo‘ysundirdi?	1501-yil
166	Muhammad Shayboniyxon 1503-yilda Temuriylar saltanatining qaysi hududini egalladi?	Toshkent va Shohruxiya
167	Muhammad Shayboniyxon 1504-yilda Temuriylar saltanatining qaysi hududini egalladi?	Farg‘ona
168	Muhammad Shayboniyxon 1505-yilda Temuriylar saltanatining qaysi hududini egalladi?	Xorazm
169	Muhammad Shayboniyxon 1506-yilda Temuriylar saltanatining qaysi hududini egalladi?	Balx
170	Muhammad Shayboniyxon 1507-yilda Temuriylar saltanatining qaysi hududlarini egalladi?	Hirot
171	Qaysi voqeadan so‘ng Muhammad Shayboniyxon butun Movarounnahrni egallashga kirishdi?	Samarqand Muhammad Shayboniyxon tomonidan uzil-kesil egallangach
172	Ulug‘bek Mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi Robiya Sultonbegimning o‘g‘illari ismini toping.	Ko‘chkunchi Sulton va Suyunchxo‘ja Sulton
173	Shayboniyxon amakisi Ko‘chkunchi Sultonni qayerga hokim etib tayinlaydi?	Turkiston
174	Shayboniyxon amakisi Suyunchxo‘ja Sultonni qayerga hokim etib tayinlaydi?	Toshkent
175	Shayboniyxon o‘zining ukasi Mahmud Sultonni qayerga hokim etib tayinlaydi?	Buxoro
176	Shayboniyxon o‘zining amakisining o‘g‘li Jonibek Sultonni qayerga hokim etib tayinlaydi?	Axsi va Andijon
177	Jonibek Sulton kimning o‘g‘li edi?	Abulxayrxonning o‘g‘li Xo‘ja Mahmud Sultonning
178	Movarounnahrda shayboniylar sulolasining hukmronligi qachon to‘liq o‘rnatildi?	1504-yil
179	Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatilgach qaysi shahar poytaxt etib belgilandi? ★	Samarqand
180	Shayboniyxon qachon Xurosonga yurish boshladi?	1505-yil
181	Hirot qachondan va qanday sabab tufayli o‘zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo‘qotdi?	1507-yildan, Shayboniyxonning bosqini tufayli
182	Shayboniyxon … bilan amalda Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz – Samarqand qo‘l ostida birlashtira oldi.	Xurosonning bo‘ysundirilishi
183	O‘zbek xalqi qachon shakllangan? ★	IX-XII asrlar
184	Mo‘g‘ullar nechanchi asrda Dashti Qipchoqni o‘ziga bo‘ysundirgan?	XIII asr boshlarida
185	Qachondan boshlab yurtimizda yashovchi aholi o‘zbeklar deb atala boshlandi? ★	XVI asrdan
186	XVI asrdan yurtimizda o‘zbek xalqining tarkibi qaysi etnos hisobiga kengaya borgan? ★	dashti qipchoqlar

187	Shayboniyxon hokimiyatining muvaffaqiyatiga sabab bo‘lgan omillar nimalardan iborat edi?	– Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so‘ng boshlangan o‘zaro qirg‘inlarning yana takrorlanishini aslo istamaganliklari; – Dashti Qipchoq qabilalarining o‘troq hayot tarzida yashashni orzu qilishlari; – Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o‘z orzularini ro‘yobga chiqarishga birdan-bir qodir qudrat deb hisoblaganliklari; – Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrdagi ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi; – Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va aholining ma’lum qismi Muhammad Shayboniyxonni qo‘llab-quvvatlaganliklari.
188	Shoh Ismoil Safaviyning davlati chegaralari qaysi davlatlar bilan tutashgan edi?	bir sarhadi Xuroson bilan, ikkinchi sarhadi esa Usmonli davlati
189	Eron shohi Ismoil Safaviy va Muhammad Shayboniyxon o‘rtasida hal qiluvchi jang qachon sodir bo‘ldi?	1510-yil
190	Eron shohi Ismoil Safaviy va Muhammad Shayboniyxon o‘rtasida hal qiluvchi jang qayerda sodir bo‘ldi?	Marv yaqinida
191	Eron shohi Ismoil Safaviy qachon butun Xurosonni zabt etdi?	1510-yil
192	Qadimiy Marv shahri hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan?	Turkmaniston
193	Jang chog‘ida dushman qo‘shinini qanotlaridan aylanib o‘tib, qurshab olib zarba berish usuli qanday nomlanagan?	tolg‘ama
194	Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni nisbatan oson egallab olishiga nimalar asosiy sabab bo‘ldi?	– Shayboniyxon Movarounnahrdagi ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilishi; – Movarounnahrdagi temuriyzodalar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlardan charchagan aholi va zodagonlarning ma’lum qismi Shayboniyxonni qo‘llab-quvvatlashi; – o‘zaro nizolar kuchliligi tufayli temuriyzodalar dushmanga qarshi ittifoq tuza olmaganligi.

